



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-oktabr VII-15-118-7-96-K/25 Kattaqo‘rg‘on tumani

Aholi farovonligini ta‘minlash va mahallalardagi mavjud muammolarni hal etishda Yakkabog‘ mahallasining “Mahalla yettiligi” tomonidan 2025-yil davomida olib borilayotgan ishlari hamda kelgusida bajariladigan vazifalar to‘g‘risidagi hisoboti haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 14-yanvardagi “Hududlarni rivojlantirish hamda aholi muammolarini hal etishda mahalliy Kengashlar deputatlari va senatorlarning “mahalla yettiligi” bilan o‘zaro hamkorligini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi KQ-35-V-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-son Farmoni ijrosini ta‘minlash tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlarida mahallabay ishlashga mas‘ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning hamkorligini ta‘minlash maqsadida shuningdek, Yakkabog‘ mahalla fuqarolar yig‘ini raisi A.Muxammadiyevning hisobotini muhokama etib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq o‘n beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Aholi farovonligini ta‘minlash va mahallalardagi mavjud muammolarni hal etishda Yakkabog‘ mahallasining “Mahalla yettiligi” tomonidan 2025-yil davomida olib borilayotgan ishlari hamda kelgusida bajariladigan vazifalar to‘g‘risidagi Yakkabog‘ mahalla fuqarolar yig‘ini raisi A.Muxammadiyevning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi birinchi o‘rinbosari (M.Zavqiyev), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (E.Raximov), Yakkabog‘ mahallasi hokim yordamchisiga:

-mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi mablag‘laridan samarali foydalanish;

-ajratiladigan subsidiyalar to'g'risidagi kollegial qarorlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

-“Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturida belgilangan vazifalar, kambag'allikni qisqartirish tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan monitoring olib borish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimi o'rinbosarlari (O.Shirinov, S.Djumayeva), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi (L.Abduqaxxorov), Yakkabog' mahallasi yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoliga:

-milliy qadriyatlarni targ'ib qilish, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

-xotin-qizlar o'rtasida reproduktiv salomatlik qoidalari va sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish:

- “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari”ga kiritilgan fuqarolarga belgilangan mezonlar asosida moddiy yordam, tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilish choralari ko'rib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Yakkabog' mahallasi profilaktika inspektoriga:

-aholi, ayniqsa, yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish;

- voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, milliycha umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, terrorizm, ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoyalashga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish;

-mahallalarda kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash, huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga barham berish bo'yicha qonunchilikda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish choralari ko'rsin.

5. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi (N.Jo'rayev), Yakkabog' mahallasi ijtimoiy xizmat xodimiga ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatishni tashkil qilish shuningdek, aholiga davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmat va yordamlar hamda mazkur xizmatlardan foydalanishga bo'lgan huquqlari bo'yicha targ'ibot ishlarini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

6. tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Safarov) va Kattaqo'rg'on kecha va bugun gazetasi tahririyati (v.v.b. J.Normamatov) tumanda mahalla yettiligi tomonidan olib borilayotgan ishlar samaradorligi bo'yicha ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiya raislari (A.Xudoyberdiyev, D.Mirzaxonova, M.Xolova, R.Djurayev) hamda tuman hokimi o'rinbosarlari (M.Zavqiyev, O.Shirinov, M.Rasulov, B.Sulaymonov, S.Djumayeva) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV JAMSHID
TULKINOVICH